

**ALEKSANDR BEKOVICH-CHERKASSKIY  
EKSPEDITSIYASINING BA'ZI TAFSILOTLARI.  
XIVAGA YURISH VA EKSPEDITSIYANING BARBOD BO'LISHI**

*Ithomov Ziyovuddin Adhamovich.  
Nizomiy nomidagi O'zMPU,  
"Tarix" kafedrasida tarix fanlari nomzodi,  
Professor*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada XVIII asr davomidagi diplomatik munosabatlar, xususan, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklari bilan olib borgan siyosiy va diplomatik munosabatlari va ularning harbiy-siyosiy jihatlari, diplomatik missiyalar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, rus davlati hukumatining maxsus topshirig'i bilan amalga oshirilgan knyaz Aleksandr Bekovich-Cherkasskiyning harbiy ekspeditsiyasi, uning boshlanishi va ba'zi tafsilotlari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Rossiya imperiyasi, O'rta Osiyo xonliklari, diplomatik munosabatlar, elchiliklar, ekspeditsiyalar, harbiy-siyosiy missiya, Kaspiy dengizi, Amudaryo, savdo yo'llari, tashqi siyosat.

**НЕСКОЛЬКО СЛОВ ОБ ЭКСПЕДИЦИИ АЛЕКСАНДРА БЕКОВИЧА-  
ЧЕРКАССКОГО. ПОХОД НА ХИВУ И ПРОВАЛ ЭКСПЕДИЦИИ**

*Ithomov Ziyovuddin Adhamovich.  
Национальный педагогический  
университет Узбекистана имени Низами,  
кандидат исторических наук, профессор*

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о дипломатических отношениях в XVIII веке, в частности о политико-дипломатических отношениях Российской империи со Среднеазиатскими ханствами и их военно-политических аспектах, дипломатических миссиях. Также рассматривается военная экспедиция князя Александра Бековича-Черкасского, которая осуществлялась по специальному распоряжению правительства Российского государства, ее начало и некоторые особенности.

**Ключевые слова:** Российская империя, Среднеазиатские ханства, дипломатические отношения, посольства, экспедиции, военно-политическая миссия, Каспийское море, Амударья, торговые пути, внешняя политика.

**A FEW WORDS ABOUT THE EXPEDITION OF ALEXANDER BEKOVICH-  
CHERKASSKY. MARCH TO KHIVA AND THE DESTRUCTION OF THE  
EXPEDITION**

*Ithomov Ziyovuddin Adhamovich.  
Professor, National Pedagogical  
University of Uzbekistan named  
after Nizami*

**Annotation:** This article talks about diplomatic relations in the 18th century, in particular about the political and diplomatic relations of the Russian Empire with the Central Asian khanates and their military-political aspects, diplomatic missions. The military expedition of

Prince Alexander Bekovich-Cherkassky, which was carried out by special order of the government of the Russian state, its beginning and some features will also be considered.

**Keywords:** Russian Empire, Central Asian khanates, diplomatic relations, embassies, expeditions, military-political mission, Caspian Sea, Amu Darya, trade routes, foreign policy.

### **1. Kirish.**

Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi XVIII asr birinchi choragidagi Rossiya imperiyasi va Xiva xonligi o'rtasidagi munosabatlar tarixida alohida e'tibor tortadigan masalalardan biri sanaladi. Mazkur ekspeditsiya va uning tashkil etilishi, ekspeditsiyaning boshlanishi hamda Aleksandr Bekovich-Cherkasskiyning 1715 yilda suv orqali Kaspiy dengizi sharqiy qirg'oqlariga ikkinchi sayohati hamda 1716 yilning kuz oylarida Kaspiy dengizi sharqiy hududlariga amalga oshirgan ikkinchi safari borasida avvalgi maqolalarda to'xtalib o'tilgan edi.

### **2. Adabiotlar tahlili.**

Avvalgi maqolalarda ko'rsatib o'tilganidek, A.Bekovich-Cherkasskiyning Xiva xonligiga amalga oshirgan harbiy ekspeditsiyasi va uning halokati borasida bir qator adabiyotlarda turlicha fikrlar talqin qilingan. Bu borada turli davrlarda mazkur ekspeditsiya yuzasidan tadqiqotlar olib borgan va uning tafsilotlariga to'xtalib o'tgan I.I.Golikov, O.A.Nikonov, M.A.Terentev, Ya.V.Pilipchuk, A.V.Kochnev, G.F.Miller, V.V.Yakovlev, A.A.Andreev kabi bir qator mualliflar hamda ayrim tarixiy hujjatlar va hisobotlarni qamrab olgan nashrlarda ekspeditsiyaning so'nggi bosqichi va uning halokatga uchrash sabablari, ekspeditsiyaning oqibatlari haqida bir qator masalalar ko'rsatib berilgan.

XVIII asrdayoq Rossiya hukumati O'rta Osiyoga arzon xom ashyo manbai sifatida qaray boshladi. A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi (1714-1717 yy), F.Benevenining Buxoroga elchiligi (1721 y) ochiq-oydin harbiy razvedka maqsadlarini ko'zlab (oltin konlarini aniqlash, asosiy quruqlik va suv yo'llarini qayd etish, kartografik ma'lumotlar to'plash va boshqalar) amalga oshirilgan edi. Orenburg va Sibir mudofaa yo'nalishining qurilishi Rossiyaning O'rta Osiyoga nisbatan tutgan harbiy siyosiy maqsadlarini aniq ko'rsatib turardi. Manbalarda ta'kidlanishicha, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo xonliklari bilan rasmiy munosabatlarini o'rnatishga urinishi bir qancha elchiliklarning qabul qilinganligida ko'rish mumkin. 1700 yildan 1716 yilga qadar Rossiyada Buxoro xonligidan ikkita - 1705 yilda Olimbek hamda 1716 yilda Xonqulibek To'בחiboshi boshchiligidagi, Xiva xonligidan esa 1700 yilda Do'stбек baxodir va 1714 yilda Ashurbek boshchiligidagi elchiliklar rasmiy tashrif bilan bo'ldilar. Bu elchiliklar natijasida davlatlar o'rtasidagi savdo va iqtisodiy munosabatlarning faollashuvi hamda qo'shni davlatlardagi tabiiy boyliklar va ularning imkoniyatlari haqida ham ma'lumotlar olindi va bu jarayonni doimiy ravishda kengaytirib borilishiga alohida e'tibor qaratildi.

### **3. Asosiy qism.**

1714 yil may oyida Petr I Senatga Osiyoga ekspeditsiyalar tashkil qilish haqida farmon berdi. Podshoning farmonini bajarish maqsadida A.Bekovich-

Cherkasskiy (1714-1717 yy) hamda F.Beneveni (1718-1725 yy) ekspeditsiyalari tashkil etildi. Dashtda rus savdo karvonlarining juda ko‘p sonli harbiy qo‘riqchilar hamrohligida paydo bo‘lishi osiyolik hukmdorlarda bu karvonlarning tinchlik maqsadida kelayotganligiga shubha uyg‘otdi. Natijada A.Bekovich ekspeditsiyasi butunlay qirib tashlanishi bilan yakun topdi, amalda ayrim ahamiyatli bo‘lmagan natijalar bilan esa F.Beneveni elchiligi ham poyoniga yetdi.

1717 yil 20 fevralda tuyalarda Astraxangan qaytib kelgan Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy o‘z ekspeditsiyasining to‘rtinchi yurishiga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Leytenant Kojin esa bu vaqtga Bekovich-Cherkasskiy buyruqlariga itoat etmay qo‘ygan, bu yurishning muvaffaqiyatga erisha olmasligi va o‘ziga Hindistonga ketishga ruxsat berilishini talab qilayotgan edi. Shu vaqtda qalmaq xoni Ayukaxondan Xiva xoni ruslarni qurol bilan qarshi olish uchun qo‘shin to‘playotganligi, ruslar u yerda suv ham, xashak ham topa olmasligini, xivaliklar esa Krasnovodsk qal’asiga yurish qilayotganligi, Cherkasskiyning choparlarini esa tutqunlikda ushlab turganligi haqida maktub oldi.

Kojin bu xaqda podshoni, general-admiral graf Apraksinni va knyaz Menshikovni ogohlantirib, Bekovichni “xoinlik bilan rus qo‘shinlarini dushman qo‘liga topshirishda” aybladi, o‘zi esa Peterburgga qaytdi. Leytenant Kojin o‘zboshimcha bu xatti-harakati uchun sudga berildi, biroq oradan ko‘p o‘tmay uning bergan ma’lumotlari o‘zini oqlagani uchun ozod etildi. Ayukaxon tomonidan xabar berilganligi xaqidagi ovozarlar Xivadan Voronin tomonidan yuborilgan maktub bilan xam tasdiqlandi.

Xiva xonligining harbiy harakatlarga tayyorlanayotganligi haqida xabardor bo‘lgan A.Bekovich-Cherkasskiy Rossiya va Xiva xonligi o‘rtasidagi mavjud munosabatlarni inobatga olmadi va xonlik bilan diplomatik munosabatlarga kirishishni maqbul deb hisoblamadi. 1717 yil iyun oyida A.Bekovich-Cherkasskiy Petr I ning “Xiva xoni huzuriga elchi sifatida borish” haqidagi ko‘rsatmasini inkor qilgan holda 3646 nafar harbiylar hamda 6 ta zambarak bilan qurollangan holda Xiva xonligi poytaxtiga yurish boshladi. Poruchik Kojinning hali bu yurish boshlanmasdan oldin yuborgan ma’lumotnomasida ko‘rsatishicha –“Bekovich rus qo‘shinlarini Xivaliklarga taslim qilishni maqsad qilgan bo‘lishi ham mumkin edi”.

1717 yilning avgust oyi o‘rtalarida suvsiz cho‘llarda 1350 verst masofani bosib o‘tgan Bekovich-Cherkasskiy otryadlari Amudaryo yaqinidagi Oybo‘yir ko‘li bo‘yida xandaqlar qazib, tuproqqal’a ko‘tardilar. Bu haqda Xiva xoni Sherg‘ozixonga ruslar lageriga oziq-ovqat va sovg‘alar olib borgan elchilar habar berdilar. Xiva xonligi hududlarida o‘zboshimchalik bilan qal’a qurilgani xonlikda ekspeditsiyaga nisbatan yanada xushyorroq bo‘lishga va uni bartaraf etishga tayyorgarlikni kuchaytirishga turtki bo‘ldi.

1717 yil bahorida Bekovich-Cherkasskiy mayor Tevkeleyevni Eron va Hindistonga josus qilib jo‘natadi. Astraxanda turib Bekovich Cherkasskiy yangidan qo‘shin yig‘di va avvalgi qo‘shinga ko‘ra ko‘proq askarlarga ega bo‘lib, 1717 yilning bahorida quruqlikdagi karvon yo‘llari orqali Xiva xonligi tomon yo‘lga chiqdi Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi otryad 3727 piyoda, 617 otliq dragun, 2000 kazak, 230 dengizchi askar va 22 ta to‘p-zambarak bilan Xivaga yo‘l

olgan edi. 9 iyunda otryad Guryev shahridan chiqib, qumli dasht va sahrolar osha 2 oy yo‘l bosgach, Xivaga kirib keldi. Xivadan 120 chaqirimcha bo‘lgan Qayrag‘och darasida Sherg‘ozixonning 24 minglik qo‘shini bilan to‘qnashadi. Uch kunlik jangda har ikki tomon katga talofat ko‘radi. Xon Bekovich-Cherkasskiyni muzokara yuritish uchun Xivaga taklif qiladi. Xivada Sherg‘ozixon dushmanni g‘aflatda qoldirish maqsadida muhim harbiy strategik hiyla ishlatib, rus qo‘shinlarini besh shaharga bo‘lib yuboradi va keyinchalik ularning barchasi qirib tashlanadi. Bekovich-Cherkasskiyning o‘zi esa 1717 yil 29 avgustda qatl etiladi.

Bu vaqtda Xiva xonligi chegaralariga yaqin hududlarda rus qo‘shinlarining turkmanlar hamrohligida bo‘lib turishi Xiva xonligi hukumatini sergak torttirdi. Bekovich-Cherkasskiy tomonidan xivaliklarga qarshi harbiy harakat tayyorlanayotganligi haqida Rossiya bilan ittifoqchi bo‘lgan Ayuka xon habar beradi. Bu haqda izlanishlar olib borgan tadqiqotchi Ya.V.Pilipchuk ham harbiy tajovuz bo‘lishi mumkinligi haqida Xiva xonining avvaldan xabardor qilinganligini ko‘rsatib o‘tadi. Uning ko‘rsatib o‘tishicha, Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy harbiy otryadlari 1717 yilda Kichik qozoq juzi yerlari orqali Xivaga yo‘l oldi. Biroq qalmoqlar xoni Ayuka xon Xiva xoni Sherg‘ozini bu hujumdan ogoh etdi va rus harbiy otryadlari o‘zbeklar tomonidan butunlay qirib tashlandi. Garchi har ikki o‘rtada harbiy to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tgan va bir necha kun davom etgan bo‘lsada, boshqa manbalarda Bekovich-Cherkasskiy otryadlarining to‘liq qirib yuborilmaganligi ham ko‘rsatiladi.

Manbada ko‘rsatilishiicha, xon Ayuka tomonidan Sherg‘ozixonning Bekovich-Cherkasskiy yurishidan ogohlantirilishi Ayuka va Bekovich o‘rtasidagi shaxsiy kelishmovchiliklar sabab edi deb ko‘rsatiladi. Bu xabar xivaliklarga yetib borishi bilanoq Sherg‘ozixon o‘zining 24 ming kishilik otliq qo‘shinlarini Bekovichga qarshi otlantirdi, ayrim manbalarda esa Sherg‘ozixon qo‘shinlarining soni 15 ming kishi edi deb ko‘rsatiladi. Xivaliklar juda katta kuch bilan va to‘satdan hujum qilgan bo‘lsalarda, Bekovich Cherkasskiy qo‘shinlariga jiddiy zarar yetkazmadilar. Uch kun davom etgan piyoda qo‘shinlardan 10 nafar dragunlar va kazaklar o‘ldirilgan bo‘lsa, zambaraklar o‘qidan xivaliklardan ham ko‘pchilik halok bo‘lganligi ko‘rsatiladi.

Shu o‘rinda Sherg‘ozixonning ogohlantirilishiga sabab sifatida ko‘rsatilayotgan Ayukaxon va A.Bekovich Cherkasskiy o‘rtasidagi munosabatlarga to‘xtalib o‘tish lozim. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 1699 yilda Kuban o‘rdasi xoni Davlat Girey tomonidan lashkarboshi etib tayinlangan Baxti Girey xonning katta o‘g‘li bo‘lib, bu vaqtda Kubanga va Qrimga xavf solayotgan qalmoqlarga qarshi harbiy yurishga tayyorlana boshlaydi. Biroq xonning o‘z ukasi Saodat Girey bilan nizolari natijasida o‘z hokimiyatini kuchaytirishga harakat qilgan Davlat Girey o‘g‘li Baxti Gireyni xondan keyingi o‘rinda turuvchi mansab – kalga-sulton mansabiga tayinlaydi. 1711-yilda Rossiya – Turkiya urushi vaqtida kalga-sulton Baxti Girey Rossiyaning janubiy hududlariga yurish qiladi, biroq qalmoqlar xoni Ayuka tomonidan to‘xtatiladi, Baxti Girey faqatgina Saratovgacha borishga muvaffaq bo‘ladi. Podshoning farmoni bilan Astraxan gubernatori P.M.Apraksin Kuban o‘rdasini butunlay tugatish uchun jazo otryadi sifatida

yuboriladi va bu qo'shin Xarkov shaxrigacha yurish qilib boradi. Qalmoqlar bilan ittifoqchilikda amalga oshirilgan bu yurish davomida o'n olti ming kubanliklar o'ldiriladi va yigirma ikki ming kishi asir olinadi, qalmoqlar tomonidan ikki ming bosh tuya, qirq mingga yaqin ot, ikki yuz mingga yaqin chorva o'lja olinadi. Kuban o'rdasi vayron etiladi. 1713 yilda Davlat Girey taxtdan tushirilib, o'rniga ukasi Qoplon Girey o'tkaziladi, Baxti Girey esa Qrimdan Shimoliy Kavkazga cherkeslar yurtiga qochib ketadi. Qaydan kuch to'plagan baxti Girey yana Kubanga qaytib no'g'aylar va qalmoqlarga qarshi urushga kiradi. 1713-1714 yillarda qalmoqlar xoni Ayukaxon va Baxti-Girey o'rtasida harbiy to'qnashuvlar bo'lib, o'tadi, bu to'qnashuvda qalmoqlarga ittifoqchi bo'lgan Rossiya Shvesiya bilan urushga tortilganligi sababli ularga harbiy yordam bermaydi, natijada Baxti-Girey tomonidan hujumga uchragan qalmoqlarning uch ming askarini o'ldirilib, xon qarorgohi ham qo'lga kiritiladi. Ayni ana shu to'qnashuvlarda Aleksandar Bekovich-Cherkasskiy qalmoqlarga yordam berishga majbur bo'ladi, biroq Baxti Girey bilan jangga kirishda bosh tortadi, oqibatda Baxti Girey tomonidan qalmoqlarning yelisan, jomboylik, burlak kabi urug'larining o'n ming uch yuz o'tovi talanib, o'lja qilib olib ketiladi, Rossiya hukumati esa qalmoqlarga zarur yordamni bermasdan, aksincha Ayukaxonni ta'qib qilish uchun Saratov komendantiga topshiriq beradi. Ayni mana shu holat balki Ayukaxonning A.Bekovich Cherkasskiy ekspeditsiyasi haqida Xiva xoni Sherg'ozixonni ogohlantirishiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Boshqa manbada keltirilgan ma'lumotga asosan A.Bekovich-Cherkasskiyning hamroxi leytenant Kojinning ko'rsatishicha, Ayukaxon o'ziga berilishi mumkin bo'lgan jazodan qutulib qolgan. 1719 yilda halokatga uchragan ekspeditsiya bilan bog'liq holatlarni o'rganish uchun Sankt-Peterburgdan maxsus yuborilgan general-auditor I.V.Kikin (general-auditor lavozimi harbiy-sud tizimida Petr I tomonidan 1716 yil 30 martda tasdiqlangan Harbiy Nizomga asosan joriy etilgan, birinchi general-auditor lavozimiga aynan mana shu Ivan Vasilevich Kikin tayinlangan) Ayukaxon o'zining xiyonati bilan bog'liq hamma "iz"larni yo'q qilgani, shuningdek, oberkomendant Chirikovga maktub yo'llab, o'zining Xivaga ekspeditsiya xavfi haqida xabar berganligi haqidagi shubhalardan qutulishga harakat ham qilganligi ko'rsatib o'tadi.

Ayrim manbalarda ko'rsatilishicha, 1717 yil avgust oyining ikkinchi yarmida Xiva xonligi qo'shinlari Bekovich-Cherkasskiy otryadlariga hujum boshladi. Xonlik qo'shinlarining hujumlari Bekovich otryadlari tomonidan uch kun davomida qaytarib turildi. To'rtinchi kunga kelib Sherg'ozixon harbiy harakatlarni to'xtatdi va Bekovich-Cherkasskiy muzokaralarga taklif qildi. Bekovich-Cherkasskiy 500 kishilik otryad bilan muzokaralarga keldi va xon tomonidan Xivaga taklif etildi. Xiva yo'lida Bekovich-Cherkasskiy otryadlari pistirmada turgan xivaliklar tomonidan qirib tashlandi, Bekovich-Cherkasskiyning o'zi esa asir olindi.

Boshqa muallifning ko'rsatishicha, Sherg'ozixon A.Bekovich-Cherkasskiy bilan tinchlik muzokaralariga erishgach, uni faxrli mehmon sifatida Xivaga taklif qiladi. O'ziga nisbatan Sherg'ozixon tomonidan katta hurmat

ko'rsatilayotganligidan hotirjam bo'lgan Bekovich-Cherkasskiy unga hamrohlik qilib kelayotgan knyaz Samonov boshchiligidagi 500 nafar o'tliq qo'shinning 240 nafarini ajratib joylashtirish uchun qulay bo'lgan yerga yuborilishiga rozilik berdi. Qo'shin ikkiga ajralgan vaqtda esa to'satdan qilingan hujum natijasida qo'shin o'rab olindi va ko'p askarlar o'ldirilgan, qolganlari asir olingan.

Ekspeditsiyaning asosiy otryadlariga esa mayor Frankenberg boshliq bo'lib qoldi. Xivaliklar Frankenbergga qal'adan chiqish va qo'shinni beshta qismga bo'lish va harbi qismni alohida ko'rsatilgan hududlarga joylashtirish haqida Bekovich Cherkasskiyning ko'rsatmasini keltirdilar. Biroq Frankenberg bu ko'rsatmaning Bekovich tomonidan berilganligiga ishonmadi va u bilan shaxsan uchrashtirilishini talab qildi. Xivaliklar Bekovich-Cherkasskiyga ikkinchi marta maktub yozdirib, qo'shinni qal'ani tark etishi lozimligi ko'rsatildi, biroq Frankenberg faqatgina agar buyruqqa itoat qilmasa uni tribunal va dor kutayotganligi ko'rsatilgan to'rtinchi maktubni olgandan so'nggina qal'ani tark etib qo'shinni qismlarga bo'lishga ko'rsatma berdi. Qo'shinning har bir qismi xivaliklar tomonidan ko'rsatilgan qishloqlarga olib borildi va ko'p qismi asirga olindi, ayrimlari qatl etildi.

Rossiya imperiyasining Xiva xonligiga nisbatan siyosiy munosabatlari tarixi masalalariga XVIII asrdayoq tarixchilar e'tibor qarata boshlaganligi tadqiqotlarda ko'rsatib o'tilib, ayniqsa ular orasida G.F.Miller va V.Mogutovlarning ishlariga alohida to'xtalib o'tiladi. Bu mualliflar o'z asarlarida A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining muvaffaqiyatsizlikka uchrashi masalarini ko'rsatib berish bilan birga, G.F.Miller tomonidan Petr I ning O'rta Osiyoga nisbatan amalga oshirgan ekspeditsiyalarining harbiy yurish xususiyatiga ega ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi. V.Mogutov esa Petr I hamda A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining muvaffaqiyatsizlikka uchrashining asosiy sababi "Xiva xalqining o'z erkini yo'qotib qo'yishdan cho'chiganligi" deb ko'rsatadi.

Ayrim mualliflar tomonidan A.Bekovich-Cherkasskiyning bu vaqtda o'z jonini to'lov evaziga saqlab qolganligiga ishora qilinadi: -"Senat tomonidan tergov qilingan guvohlar tomonidan berilgan ma'lumotlarda A.Bekovich-Cherkasskiy foydasiga hech qanday ma'lumot uchramadi, aksincha u va Zamonovning ochko'zligi, podshodan 70000 rublga teng sovg'alarni Xiva xoniga yetkazmasdan maxfiy tarzda o'g'irlaganliklari ko'rsatib o'tildi, shahar tashqarisidagi Yekonomov va Zamonovlar osilgan dorda A.Bekovich-Cherkasskiy ko'rinmaganligi ko'rsatib o'tildi".

A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi va uning tarixi mualliflaridan biri Djon Bell ham o'z asarida Bekovichning halokati borasida bir qator ma'lumotlarni keltirib o'tadi. J.Bell "Sayohatnomasi" ni o'rgangan mualliflarning yozishicha, "... Bekovich xon bilan qo'pol muomalada bo'ldi, buning uchun esa qatl etildi, chunki bunday xatti-harakatning jazosi shunday bo'lishiga ishora qilib, Bekovichning bu vaqtda juda tushkunlikka tushib qolganligi va o'zini g'alati tutayotganligini ko'rsatib o'tadi va buni u tomondan qo'shinni bo'laklarga bo'lib alohida joylashtirishga ko'rsatma berganligi bilan izohlaydi. Buning asosiy sababi sifatida esa uning xotini va ikki nafar qizlarining Volga daryosida halokatga uchrab halok

bo'lganligi haqida kelgan xabarni ko'rsatadi. Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi va uning muvaffaqiyatsizligi borasida zamonaviy rus tarixshunosligida quyidagi fikrlarni ham uchratish mumkin: -"Shaxsan Petr I tomonidan tashkil etilgan va yuqori darajada ta'minlangan birinchi Xiva ekspeditsiyasining muvaffaqiyatga erishish ehtimoli juda yuqori edi. Biroq, bir qator sub'ektiv omillar, jumladan ekspeditsiya boshlig'ining shaxsiy kamchiliklari, noma'lum ob-havo sharoitini inobatga olmaganligi hamda unga tayyor emasligi, Xiva xonligining tajovuzkor va harbiy hiyla bilan harkat qilganligi bu missiyaning to'laligicha barbod bo'lishiga sabab bo'ldi".

Tadqiqotchilarning fikricha, -"Rossiya imperiyasining birinchi ekspeditsiyasi imperiyaning bo'lajak hukmdorlari uchun razvedka vazifasini bajarib, Xiva xonligi bilan harbiy jihatdan emas, balki savdo-iqtisodiy va tinch diplomatik munosabatlarni o'rnatish o'zaro manfaatli bo'lishini ko'rsatib berdi, hukumat esa A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining halokatiga deyarli munosabat bildirmadi".

Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining yo'q qilinishi haqida A.Andreev ham to'xtalib o'tadi, jumladan, Xiva xonligi tomonidan ekspeditsiyaning qirib tashlanishi nafaqat Rossiya, balki bir qator Yevropa davlatlarida ham favqulodda olamshumul voqea sifatida ko'rildi. Bu fojeali voqea tafsilotlarini O'rta Osiyo xonliklari tarixnavislari ham o'z asarlarida ma'lum darajada yoritib berganlar. Jumladan, "Firdavs-ul iqbol" asarida Sherg'ozixon Qulmuhammad otaliq va nayman amir Avaz inoqlarni behisob lashkarga bosh qilib, muzokara o'tkazish uchun yuborganligi va ular Davlat Girey bilan tinchlik sulhiga erishib, buni nishonlash uchun ziyofat uyushtirish taklifi bilan hiyla ishlatib ularni qirib tashladilar. Davlat Gireyning maqsadi "o'ttiz ming kishilik" qo'shin bilan kelganligi bu elchilik ishlari bilan emas, balki "Xorazmni egallash" maqsadida Orol yaqinidagi "oltin va kumushga boy Shayx Jalil tog'iga kelgan"ligi haqida to'xtalib o'tadi. A.B.Cherkasskiy ekspeditsiyasining halokati, ekspeditsiya rahbari A.B.Cherkasskiy va boshqa ekspeditsiya a'zolarining qatl etilishi Xiva xonligi va Rossiya davlatlari o'rtasidagi munosabatlarni uzoq vaqtgacha murakkablashtirib qo'ydi, garchi Florio Beneveni elchiligi orqali bu holatni bartaraf etishga urinish bo'lgan bo'lsada, u natija bermadi.

Shu o'rinda Petr I tomonidan elchi sifatida Buxoro xonligiga yuborilgan italyan sayyohi Florio Benevenining Rossiyaga qaytish jarayonlari ham e'tiborni tortadi. 1718 yilda Petr I tomonidan elchi sifatida Astraxan orqali yo'lga chiqqan Florio Beneveni 1721 yilda Buxoroga yetib keladi. 1723 yilga qadar Buxoroda bo'lgan elchi Rossiya-Buxoro munosabatlari borasida podsho tomonidan qo'yilgan talablarning bajarib bo'lmasligini anglagach, 1723 yilda ortga qaytishga ruxsat oladi, biroq buxoroliklar unga faqat 1725 yildagina qaytishga ruxsat bersalarda, uning ketishiga to'sqinlik qiladilar. Florio Beneveni unga o'z yordamini taklif qilgan Xiva xoni Sherg'ozixonning yordami bilan 1725 yil 8 aprelda Buxorodan qochishga va Xivaga borishga muvaffaq bo'ladi. Xiva xoni esa uning 1825 yilning avgust oyida A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi vaqtida asir olingan 92 nafar

rus askarlari bilan birgalikda Rossiyaga jo'natib yuborganligi ham ilmiy adabiyotlarda ko'rsatib o'tilgan.

Ayrim tadqiqotchilarning ishlarida Aleksandr Bekovich Cherkasskiy ekspeditsiyasining harakati va halokatga uchrashi borasida alohida to'xtalib o'tilgan, jumladan, A.Popov hamda D.Golosovlarning ma'lumotlariga asoslanib tadqiqotchi V.Chichagov quyidagilarni ko'rsatib o'tadi: -"Ustyurt tabiati haqida ancha salmoqli ma'lumot to'plagan dastabki rus ekspeditsiyasi Petr I ning ko'rsatmasiga asosan tashkil etilgan Aleksandr Bekovich Cherkasskiy ekspeditsiyasi sanalib, ekspeditsiya 1717 yilda Ustyurtni shimoliy-g'arbidan janubiy-sharqi tomon Som va Beleuli quduqlari orqali kesib o'tgan bo'lsada, uning podsho tomonidan belgilangan asosiy vazifasi rus savdogarlariga suv orqali Moskvadan O'rta Osiyo shaharlariga hech qanday to'siqlarsiz qatnashlari uchun Amudaryo suvining Kaspiyga quyilgan o'zanini aniqlash edi". Garchi ekspeditsiya to'g'ridan-to'g'ri harbiy bosqinchilik maqsadlarini ko'zlamagan bo'lsada, ayni vaqtda u harbiylashtirilgan ekspeditsiya bo'lib, tarkibida 4000 dan ortiq harbiy bor edi. Rossiya davlati Xiva xonligi bilan avvalgi diplomatik aloqalaridan xulosa qilib garchi Amudaryo o'zanini topish imkoni kam bo'lsada, biroq xonlik bilan boshqa masalalarning ijobiy yechim topishiga umid qilar edi. Ekspeditsiya tayyorgarlik ko'rayotgan bir vaqtda Xiva xonligida hokimiyat o'zgardi va taxtga Sherg'ozixon o'tirdi. Sherg'ozixonning qo'shni davlatlar, ayniqsa Rossiya davlati bilan hech qanday kelishuvlari bo'lmaganligi sababli Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi to'rt mingdan ortiq qo'shinning xonlik hududlariga kirib kelishiga umuman befarq qaramasligi aniq edi. Dastlab A.Bekovich-Cherkasskiy qo'shinlarining Xiva tomon yo'lini to'sishga uringan Sherg'ozixon bu maqsadi amalga oshmagach, muzokaralarga kirishdi. Ekspeditsiyaning ko'p sonli ekanligi ularni bir shaharga sig'masligi vajidan qo'shinni kichik-kichik qismlarga bo'lingan holda Xiva atrofidagi qishloqlarga ham bo'lib joylashtirilishiga erishgach, keyinchalik ularning katta qismini qatl qildirdi. Keyinchalik asirlikdan qutulib qaytgan ekspeditsiyaning bir qancha a'zolari bu holatni batafsil tasvirlab berdilar".

Xiva xonligiga qarshi bir necha marta amalga oshirilgan harbiy ekspeditsiyalar va yurishlarning tarixiga oid asar muallifi M.Terentevning yozishicha, -"A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi haqida avval yozgan kishilarning fikriga ko'ra, 3720 kishining halokatiga xivaliklarning hiylakorligi va qalmiqlar xoni Ayukaxonning xoinligi, Bekovichning ishonuvchanligi sabab bo'lgan. Maksheevning aytishicha, -"muhim sabab ... Bekovichning [bu ekspeditsiyadagi-Z.I.] g'alati va noaniq pozitsiyasidir, ya'ni, bir tomondan [do'stona munosabatlar o'rnatish maqsadida kelgan-Z.I.]tinchlik elchisi sifatida kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan qurollangan harbiy qo'shinning qo'mondoni, ya'ni dushman edi".

Ayrim mualliflarning ko'rsatishicha, Bekovich va Samonov ko'p o'tmay qatl etildi. Ekspeditsiyaning bir qancha a'zolari esa tirik qoldilar va yana bir qismi esa ortga qaytishga muvaffaq bo'ldi. Ajablanarlisi, mana shu ekspeditsiyaning asosiy sababchilaridan biri sanalgan Ho'ja Nafas hamda Bekovichning birodarlarining hayoti saqlab qolindi va avf etilib, qo'yib yuborildi. Kaspiy

dengizining bo'yida barpo etilgan uchta harbiy qal'aning qo'shinlari esa turli kasalliklar va o'limning ko'payishi oqibatida zaiflashdi, Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining halokati haqida xabar kelishi bilan suv orqali Astraxanga qaytib keta boshladilar. Polkovnik fon der Viden qo'mondonligi ostidagi Krasnovodsk qal'asi turkmanlarning kuchli zarbasiga uchradi, suv tomonga chekingan rus qo'shinlari to'rt yuz kishidan ortiq talafot berdilar. Xiva ekspeditsiyasi shu tariqa yakun topdi, va xalq orasida keyinchalik "Bekovich kabi izsiz yo'qoldi" degan iborani qoldirdi.

Hujjatlarda general-leytenant Shubert hamda polkovnik Folton-de-Verasonlarning ma'lumotnomasida Aleksandr-Bekovich Cherkasskiy ekspeditsiyasining muvaffaqiyatsizlikka uchrashi va halokatining sababi sifatida quyidagilar ko'rsatiladi: "...birinchidan, ekspeditsiya 1350 verst masofada tayanch punktlarisiz suvsiz cho'llar orqali amalga oshirilib ikki oyga cho'zildi va qo'shinlarni holdan toydirdi, ikkinchidan, Xivaliklar yigirma to'rt ming kishilik otliq qo'shin bilan holdan toygan rus qo'shinlariga zarar yetkaza olmadi, uchinchidan, yurishning omadsizlikka uchrashi tasodif hamda Bekovichning ehtiyotsiziligi tufayli edi". Biroq amalda aynan bunday bo'lmaganligini yuqoridagi ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin, bu borada bir tarixchilar ham o'z ishlarida to'xtalib o'tganlar.

Tarixchi V.Kosteskiyning yozishicha, "...ekspeditsiyaning yo'q qilinganligi haqida xabar asirlikdan qochgan bir necha kishilar tomonidan Rossiyaga yetkazildi. Petr I ekspeditsiyaning yo'q qilinganligi va o'zining O'rta Osiyoga nisbatan barcha rejalari chippakka chiqqanligi haqida 1717 yilning sentyabrda xabar topdi. U To'p qarag'an va Qizilsuvdagi gornizonlarni kuchaytirish haqida buyruq bersada, uni bajarishning imkoni yo'q edi. Chunki bu vaqtda har ikki qal'aning komendantlari turkmanlardan haddan tashqari xavfsirab va biron-bir buyruq ham olmasdan o'z otryadlarini qutqarish maqsadida Astraxanga qaytib ketgan edilar.

1720 yilda Rossiyaga Xiva xoni nomidan Avaz Muhammad boshchiligida elchilar keldi. Elchilikning asosiy maqsadi Rossiya davlati bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarini qaytadan tiklash edi. Shuningdek, elchi Avaz Muhammadning Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining Xiva xonligida yo'q qilinishiga podsho hukumatining munosabatini aniqlash maqsadi ham bo'lgan ehtimol, biroq Petr I ning farmoni bilan u hibsga olindi va 1721 yilda qamoqda vafot etdi. Elchilik a'zolaridan faqatgina bir kishi Petr I maktubini Xiva xoniga yetkazish uchun ozod etildi. U bilan birga Rossiya imperiyasi kanslerining Xiva xonligi elchisi Avaz Muhammad vafot etganligi haqidagi maktubi ham yuborildi. Keyinchalik asirlikdan qaytgan rus harbiylari Xiva xoni Petr I ning maktubini oyoq osti qilib tepkilaganligi haqida aytgan edilar. A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining Xiva xonligi tomonidan yo'q qilinishi Rossiyaning O'rta Osiyodagi harbiy harakatlarini yuz yilga to'xtatib qo'ydi".

**Xulosa.** Petr I ning Sharq siyosatiga nisbatan bildirilgan munosabatlardan birida - "Petr o'zining "buyuk maqsadi" – Rossiyani Boltiq dengiziga olib chiqishni amalga oshirishga intilishi bilan bir vaqtda Sharqdan ham ko'z uzmadi.

U Sharqning Rossiya uchun ahamiyatini, ya'ni, Rossiya Yevropa va Osiyo o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning markazida bo'lgandagini uning iqtisodiy ahvoli yuksalishi juda yaxshi bilardi, shu sababli Xitoydan Turkiyagacha bo'lgan sharq mamlakatlari Petrning asosiy diqqat e'tiborida edi"[40.345], - kabi jummalarni uchratish mumkin.

Pyotr I ning 1714-1717 yillarda tashkil etgan Bekovich Cherkasskiy ekspeditsiyasi o'sha vaqtdagi qudratli Rossiya davlatining Xorazmni o'z ta'siriga bo'ysundirish uchun qilgan, lekin fojiali natija bilan tugagan birinchi urinishi bo'ldi. Xivaning hukmron doiralari Bekovich Cherkasskiyning olti mingdan ko'proq askarlaridan iborat butun qo'shinini qirib tashladilar. Dastlabki urinishdagi omadsizlik Rossiya imperiyasini to'xtatib qololmadi, keyingi harakatlar ikki tomonlama - g'arbdan Yoyiq (Ural) daryosi orqali, sharqdan - G'arbiy Sibir orqali olib borildi. Turli yo'llar bilan qozoq yerlariga kirib kelgan imperiya qo'shinlari birin-ketin zabt etilgan yerlarda harbiy qal'alar va istehkomlar qura boshladi. 1717 yilda qurilgan Omsk, 1718 yilda qurilgan Semipalatinsk, 1720 yilda qurilgan Ust-Kamenogorsk, 1735 yil qurilgan Orenburg qal'alari kabi mustahkam harbiy istehkomlar Rossiya imperiyasining bu yerdagi harbiy hukmronligi hali uzoq davom etishi va ular faqatgina qo'lga kiritgan yerlar bilan qanoatlanib qolmasliklarni bildirardi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati.**

1. Maqolaning birinchi qismida Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasining tashkil etilishi, maqsadi va boshlanishi tafsilotlari yoritib berilgan. Qarang: Ilhomov Z.A., Shukurov R.J. Aleksandr Bekovich-CHerkasskiy ekspeditsiyasining ba'zi tafsilotlari: ekspeditsiyaning boshlanishi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. 4-jild, 6- son (Iyun, 2024). 46-54-66.
2. Aleksandr Bekovich-Cherkasskiyning suv orqali Kaspiy dengizi sharqiy qirg'oqlariga ikkinchi sayohati borasida ma'lumotlar ikkinchi maqolada ko'rsatib berilgan. Qarang: Ilhomov Z.A., Aleksandr Bekovich-CHerkasskiy ekspeditsiyasining ba'zi tafsilotlari. Kaspiyga yurish (ikkinchi maqola). O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. №34. Noyabr, 2024 yil. 127-137-bb.
3. Ilhomov Z.A., Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi-ning ba'zi tafsilotlari. Kaspiyga ikkinchi yurish. "Journal of innovations in scientific and educational research" Volume 7, issue 11 (30- november). 2024. 173-179-66
4. Голиков И.И. Деяния Петра Великого. М., 1838. Т. 5. Стр. 368-369.
5. Никонов О.А. Борьба России и Персии за влияние в Средней Азии в первой половине XVIII в. Вестник РУДН, серия История России, 2009, № 5. Стр.200-206.
6. Терентьев М.А. Хивинские походы русской армии. Ред.-сост. В.А. Смолянинов. — М.: Вече, 2010.
7. Туркистон Россия империяси мустамлакачилиги даврида. Тошкент, Шарк, 1998. 30-31-66.
8. Ilhomov Z. O'zbekiston tarixi. T. Innovatsiya-Ziyo. 2022. 384-b.